"BANI JONDAN OSONDIRDI, JAFODAN YOR OSONMAZMI" G'AZALI BADIIY TAHLILI

Avalayeva Dilbar Baxrom qizi
O'zbekiston Milliy universiteti Mustaqil izlanuvchisi,
E-mail: avlayevadilbar@gmail.com

Qabul qilindi: 04.10.2025
Ko'rib chiqildi: 05.10.2025
Tasdiqlandi: 06.10.2025

Kalit so'zlar:
ilohiy ishq, badiiy san'atlar, tasavvuf, tazod, talmeh, g'azal.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fuzuliyning mashhur g'azallaridan biri "Bani jondan osondirdi…" nomli g'azali badiiy jihatdan tahlilqilinadi. Maqola davomida g'azal tarkibidagi badiiy san'atlar, uning mazmuni, ilohiy ishq unsurlari ochib berishgaharakat qilingan. Tasavvufiy qarashlar maqolada ochib berishga haraka qilingan.

Ключевые слова:
божественная любовь, художественное искусство, мистицизм, тазод, талме, газель

Аннотация: В статье анализируется одна из известных газелей Фузули «Бани джондан асондирди...» с точки зрения искусства. В статье предпринята попытка раскрыть художественное искусство, его содержание и элементы божественной любви в газели. В статье также предпринята попытка раскрыть мистические воззрения

Keywords:
divine love, artistic arts, mysticism, tasavvuf, tazod, talmeh, ghazal.

Abstract: This article analyzes one of Fuzuli's famous ghazals, "Bani jondan asondirdi...", from an artistic perspective. Throughout the article, an attempt is made to reveal the artistic arts, its content, and elements of divine love in the ghazal. An attempt is made to reveal mystical views in the article.

Kirish. Fuzuliy sharq mumtoz adabiyotida o'zining yuksak badiiy ijodi, tasavvufiy qarashlarga yo'g'rilgan ijod namunalari bilan mashhur bo'lgaan ozarbayjon xalqi farzandidir. Uch tilde ijod etgan bu ijodkor o'z she'rlarida asosan, arab falsafidan foydalangan. Fuzuliy o'z ijod namunalarida, XVI

asrgacha ozarbayjon turkchasida yozgan shoirlarning shu kungacha egallangan muvaffaqiyatli tajribalarini inobatga olib, uni buyuk g’ayrat va mahorat bilan rivojlantirgan. Lirikaning eng bebaho namunalarini berish bilan Ozarbayjon, shuningdek, turkiy adabiyot tarixida yangi, juda yirik va go‘zal maktab ochgan. Fuzuliy adabiy maktabi o‘zining ma’no -mazmun boyligi, badiiy jihatdan yuksakligi bilan inson his-tuyg’ulari va fikrlarining badiiy ejamlammasini tashkil etadi. Bu maktab tasavvuf she’riyatining sifatini so‘nggi darajada yuksak martabaga olib chiqish bilan cheklanib qolmay, u Ozarbayjon turkiychasining barcha go‘zalliklarini, imkon va qudratini go’zal qiyofada namoyish ettirgan. Bu maktab mumtoz adabiyotdagi eskirgan qoida va normalarni yo‘q qilishda, rivojlanishga to‘siq bo‘luvchi mumtoz she’riyat an’analarga dadil, ozod va epchillik bilan yondashishda buyuk tarixiy ahamiyat kasb etgan. Quyida tahlilga tortilgan ushbu g’azal ham aynan shunday ijod namunalaridan biridir:

Bani jondan osondirdi, jafodan yor osonmazmi?
Falaklar yondi ohimdan, murodim sham'i yonmazmi?
Qamu bemorina jonon davoyi dard etar ehson,
Nechuk qilmaz bango darmon, bani bemor sonmazmi?
Shabi hijron yonar jonim, do'kar qon chashmi giryonim,
Uyodir xalqi afg'onim, qaro baxtim uyonmazmi?
Guli ruxsoringa qarshu go'zimdin qonli oqar su,
Habibim fasli guldir bu, oqar suvlar bulanmazmi?
G'amim pinhon dutardim ban, dedilar, yora qil ravshan,
Desam ul bevafo bilman, inonurmi, inonmazmi?
Dagildim ban sango moyil, san etding aqlimi zoyil,
Bango ta'n aylayan g'ofil, sani ko'rgach, o'tonmazmi?
Fuzuliy rindi shaydodir, hamisha xalqa rasvodir,
Ko'ringkim, bu na savdodir, bu savdodan o'sonmazmi?

Ushbu g'azal Fuzuliy she'riyatining yuksak cho'qqilaridan biridir. Unda Alloh jamoliga chin dildan intilgan oshiq holati butun shiddati, to'foni, harorati bilan berilgan. Darhaqiqat, vasl beradigan shifoning qadrini hajr sababli bemor bo'lgan oshiqdan, zavq-shavqning tiniqligi va shirinligini yor diydoriga tashna odamdan so'ramoq kerak. Oshiqlar hamisha yorning vafosizligidan shikoyat qilib kelganlar. Avvalo, bu yerdagi yorning ham, vafoning ham ma'nosi g'oyat keng. Bu umrning vafosi, dunyoning vafosi, davlatning vafosi va hokazo. Bularning bari bitta maxrajda -Allohda to'liq jam bo'ladi. Lekin shoir o'z niyatini naqadar istig'no bilan ifoda etmoqda: hamma bemorlari dardiga darmon topib berayotgan jonon nega uning holiga parvo qilmaydi? Uni kasal hisoblamaydimi? Axir, hijron tunida sham emas, uning joni yonmoqda, giryon ko'zlaridan yosh o'rniga qon oqmoqda. G'azal badiiy tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu g'azal aruzning hazaji solim bahrida yozilgan. Taqte'si : V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -. Yetti baytdan iborat ushbu g'azal radifli g'azallar guruhiga kirmaydi, biroq bayt oxirida har bir gap "-mi" so'roq olmoshi bilan yakunlanadi. Bunday yakun ham o'ziga xos ohang kasb etgan.

Bani jondan o'sondirdi, jafodan yor o'sonmazmi?
Falaklar yondi ohimdan, murodim sham'i yonmazmi?

O'sontirdi - bezdirdi[1]

Mazmuni: meni jonimdan bezdirgan yor, o'zi jafoda qilishdan bezmasmi, men oh urganda falaklar yondi, lekin murodim shami yonmaydimi?

Yuqoridagi matlada istiora , tashbeh va tazod san'atlarining go'zal namunalari qo'llangan bo'lib, shoir birinchi misradanoq yorning jafosidan noliydi. Ikkinchi baytda ham uning arz – dodi mantiqiy jihatdan davom ettiriladi:

Qamu bemorina jonon davoyi dard etar ehson,
Nechuk qilmaz bango darmon, bani bemor sonmazmi?

[1] Porso Shamshiyev. Navoiy asarlari lug'ati. T:G'afur G'ulom – 1986- b:721

Qam – 1. Bostirish, 2 – tobe qilish, tobe[2]

Mazmuni: Odatda jonon o'zining tobe bemoriga dardga davoni tobe bemorlariga ehson qilishadi, nima uchun buni menga ham qilmaydi, yoki meni bemor sanamaydimi? Ushbu baytdagi dard va darmon so'zlari o'zaro zid ma'noli so'zlar bo'lib, baytdagi tazod san'atini ham yuzaga keltirgan. Shoir birinchi baytda boshlagan norozilik kayfiyati , bu baytda ham davom etgan.

Shabi hijron yonar jonim, do'kar qon chashmi giryonim,

Uyodir xalqi afg'onim, qaro baxtim uyonmazmi?

Uyo – uyg'oq

Afg'on – qayg'u – alamdan nola qilish, qayg'u - alam[3]

Shab – tun, bu yerda tunday qora ma'nosida

Mazmuni: tunday oqra hijron jonimda yonadi, giryon ko'zlarim qon to'kadi,

Qayg'u alam xalqi tanimda uyg'oq, qaro baxtim uyg'onmaydimi?

Ushbu baytda ham yuqoridagi ikki baytdagi singari tazod bilan ma'no kuchaytirish hodisasi davom etadi, afg'on – baxt so'zlari hosil qilgan tazod san'ati bilan birgalikda xalqi afg'on, qaro baxt, shabi hijron singari istiora namunalari ham mavjud.

Guli ruxsoringa qarshu go'zimdin qonli oqar su,

Habibim fasli guldir bu, oqar suvlar bulanmazmi?

Yuqoridagi baytda ham tazod orqali fikr bayon qilish jarayoni davom ettirilib, ushbu bayt " gulday yuzingga qarshi ko'zimdan qonli yosh – suv oqadi, sevgilim gul fasli, bu faslda gullar oqar suvlar bilan qorishmaydimi" , degan mazmun mavjud. Ushbu misralarda shoir o'ziga xos so'z o'yini qilgan bo'lib, birinchi misradagi qonli suvga o'zini, gulag esa yorini tenglashtirib, ikkinchi

[2] Porso Shamshiyev. Navoiy asarlari lug'ati. T:G'afur G'ulom – 1986- b:728
[3] Porso Shamshiyev. Navoiy asarlari lug'ati. T:G'afur G'ulom – 1986- b:66

misrada o'z niyatini ochiqlagandek bo'ladi, ya'ni u to'g'ridan to'g'ri yorga birga bo'lish taklifini bermay, o'ziga xos o'xshatishlar bilan fikrini bayon etadi.

G'amim pinhon dutardim ban, dedilar, yora qil ravshan,
Desam ul bevafo bilman, inonurmi, inonmazmi?

Mazmuni: odatda men g'amimni pinhon – yashirin ravishda saqlab kelardim, lekin menga uni yorga bildirish taklifini berishdi, agar men bu dardni unga aytsam, bilmadim u ishnadimi, yoki ishonmaydimi?

Dagildim ban sango moyil, san etding aqlimi zoyil,
Bango ta'n aylayan g'ofil, sani ko'rgach, o'tonmazmi?

O'ton – yuz qizarmoq[4]

Shu misragacha yor o'ziga o'zi savol berib kelgan bo'lsa, endi u bu baytga kelib bevosita yorga murojaat qiladi va o'z qalbidagi savollarni endi yorga bera boshlaydi. " Senga moyillik tug'ilgandan keyin, aqlimni olib yo'q qilding, menga g'ofillik to'nini kiydirding, sani ko'rgach yuzim qizarmasmi" degan ma'noni beradi shoir.

Fuzuliy rindi shaydodir, hamisha xalqa rasvodir,
Ko'ringkim, bu na savdodir, bu savdodan osonmazmi?

Rind – aysh – ishratdan o'zini tortmaydgan, xaroboti beg'am, beparvo[5]

Maqta'da Fuzuliy, shaq mumtoz an'anasiga ko'ra odatiy bo'lgan taxallus qo'llash usulidan foydalangan va o'zini rind xalqidan deya aytadi, ushbu xalqdan bo'lgani uchun o'zini xalq orasida rasvoligini aytadi. Ko'ringgi bu qanday savdoki, bu savdodan rind Fuzuliy bezimaydi ham, deb fikrini yakunlaydi shoir.

G'azal mazmuniga ko'ra rindona g'azal bo'lib, bu guruhga oidliginni maqta' da qo'llangan rind so'zo ham tasdiqlaydi. Mazmunan oshiqning mashuqqa izhori bo'lib ko'ringan ushbu g'azalda, ilohiy ishq kuylangan. O'ziga xos tasavufiy qarashlar yashiringan. G'azaldagi qo'llangan so'zlar, go'zal

[4] Porso Shamshiyev. Navoiy asarlari lug'ati. T:G'afur G'ulom – 1986-
[5]Porso Shamshiyev. Navoiy asarlari lug'ati. T:G'afur G'ulom – 1986- b : 527

o'xshatishlar, o'ynoqi ohang Fuzuliy dahosining ijodda qanchalik barkamolligini yana bir bor ochib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Porso Shamshiyev. Navoiy asarlari lug'ati. T:G'afur G'ulom – 1986
2. Fuzuliy. Devon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
3. Mirzayev S., To'xliyev B. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
4. Quronov D., Rasulov R., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
5. Erkinov A. Tasavvuf va mumtoz adabiyot. – Toshkent: Fan, 2001.
6. Tafakkur.net – Fuzuliyning g'azallari matnlari